

UO‘T:636.2.033

**ABERDIN-ANGUS BUZOQLARNING SUT EMISH
DAVRIDA O‘SISH VA RIVOJLANISHI**

*Qo‘chqorov Abdukarim Nuriddinovich - assistent
Yangiboyev Abdumalik Eshmurodovich - dotsent
Shaymurodov Nurmamat To‘ychiyevich - dotsent,
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, horvachilik va
biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali*

Аннотация. Время, которое теленок тратит на стояние, ходьбу и сосание, описывает активность теленка. Чем больше времени тратится на эти активные действия, тем выше жизнедеятельность теленка, а его продолжительность характеризует количество молока (молозива), поступающего в организм теленка с первых часов жизни.

Ключевые слова: крупный рогатый скот, живая масса, селекция, абсолютный прирост, суточный прирост, период лактации, телка.

Annotation. The time a calf spends standing, walking, and sucking describes the calf's activity. The more time is spent on these active actions, the higher the vital activity of the calf, and its duration characterizes the amount of milk (colostrum) entering the calf's body from the first hours of life.

Key words: cattle, live weight, selection, absolute growth, daily growth, lactation period, heifer.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 28-martdagi PF-5696-son Farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2019-yil 28-martdagi PQ-4254-son qarori qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-martdagi “Chorvachilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4243-son qarori 2-bandiga muvofiq berilgan imtiyozlar chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi barcha xo‘jalik subyektlariga va omuxta yem ishlab chiqaruvchi korxonalariga nisbatan ham tatbiq etildi.

O‘zbekiston Respublikasiga chetdan olib kelinayotgan qoramollar olib kelish jarayonida ancha masofani bosib o‘tadi va juda ko‘p qiyinchiliklarga uchraydi, shuning uchun iqlimlashtirishning dastlabki davrida chetdan olib kelingan chorva mollari tanasidagi o‘zgarishlarni boshdan kechiradi, bu xatti-harakatlarning o‘zgarishi, mahsuldorlikning pasayishi bilan namoyon bo‘ladi va mahsuldorlik qobiliyatlarini yo‘qota boshlaydi. Bu davrdagi qiyinchiliklar, qoramollarning moslashuvchanlik xususiyatlariga ta‘sirini baholash, xatti-harakatlardagi o‘zgarishlarni, chetdan olib kelinadigan qoramollarni keyingi olib kirishda tanlashda yanada oqilona yondashish imkonini beradigan iqlim sharoitga moslashuvchanlik xususiyatlarini aniqlash juda muhimdir. Olib kelingan qoramollarni yangi iqlim sharoitlariga tezroq va osonroq moslashuvchanligi inobatga olinadi.

Xulq-atvordagi farqlar buzoqlarning o'sish dinamikasiga ta'sirini, ularning sutdan ajratilgandan keyin tirik vazni bilan solishtirildi. (1-jadval).

1 jadval

Buzoqlarning tirik vaznining o'rtacha sutkalik o'sish dinamikasi emish davrida, gr (n=10)


Davr	Guruhlar		
	I	II	III
G'unajinlar			
3 oylik tirik vazni, kg	94,8 ±1,1	88,3 ±1,5	90,2±1,3
Tug'ilgandan 3 oylikkacha tirik vaznning mutlaq o'sishi, kg	70,5 ±0.9	65,1 ±0,6	66,6 ±0,8
Tug'ilgandan 3 oylikkacha tirik vaznning o'rtacha kunlik o'sishi, g	785,0 ±10,3	723,0 ±0.8	740,0 ±10,4
6 oylik tirik vazni, kg	174,1± 1,1	160,0 ±1,6	169,0 ±1,0
3 oydan 6 oygacha tirik vaznning mutloq o'sishi , kg	79,1 ±0,5	72,5 ±0,3	79,8 ±0,4
3 oydan boshlab tirik vaznning o'rtacha kunlik o'sishi 6 oylikkacha	879,0±7,1	806,0 ±5,4	887,0 ±4,8
Emizish davrida tirik vaznning mutlaq ortishi, kg	149,8± 1.1	137.7+1.2	146,5 ±0,7
Emizish davrida tirik vaznning o'rtacha kunlik o'sishi, g	832.0+7.3	765.0+4.3	816.0+5.2
Buqalar			
3 oylik tirik vazni, kg	100,4 ±1,0	99,6 ±1,0	99,8 ±0,7
Tug'ilgandan 3 oylikkacha tirik vaznning mutlaq o'sishi, kg	73,4 ±0,7	74,5 ±0,5	74,6 ±1,2
Tug'ilgandan 3 oylikkacha tirik vaznning o'rtacha kunlik o'sishi, g	816,0 ±3,1	828,0 ±2,6	829 ±4,8
6 oylik tirik vazni, kg	200,0± 3,0	191,1± 2.1	189,3 ±2,4
3 oydan 6 oygacha tirik vaznning mutloq o'sishi , kg	100,3 ±1,5	91,3 ±1,7	89,4 ±1,8
3 oydan boshlab tirik vaznning o'rtacha kunlik o'sishi 6 oylikkacha	1115,0 ±4,7	1015,0 ±8,0	993,0 ±9,0
Emizish davrida tirik vaznning mutlaq ortishi, kg	173,0 ±3,0	166,0± 2,6	164,1 ±1,8
Emizish davrida tirik vaznning o'rtacha kunlik o'sishi, g	966,0 ±11,8	922,0 ±9,1	911,0 ±8,3

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin tug'ilgandan 3 oylikgacha bo'lgan davrda g'unajnlarning tirik vaznidagi o'rtacha kunlik o'sish I guruhda 785 g eng yuqori bo'ldi. 3 oygacha bo'lgan davrda buqalarning tirik vaznini oshirish bo'yicha guruhlar o'rtasida sezilarli farq yo'q. 3 oylikgacha bo'lgan davrda g'unajnlarning tirik vaznining mutloq o'sish ko'rsatgichi I tajriba guruhimizda 70,5 kg eng yuqori bo'ldi, II va III tajriba guruhlarimizda bu ko'rsatgich mos ravishda 65,1 va 66,6 kg ni tashkil qildi. 6 oylikda g'unajnlarning tirik vaznida sezilarli farqlarni ko'rishimiz mumkin bunda I tajriba guruhimiz 174,1 kg ni tashkil qilgan bo'lsa II va III tajriba guruhlarimiz g'unajnlari 160,0 va 169,0 kg ni tashkil qildi. ($P>0,95$)

3 oydan 6 oygacha tirik vaznning mutloq o'sishi bo'yicha I tajriba guruhimizda 79,1 kg ni II va III tajriba guruhlarimizda esa 72,5 va 79,8 kg ni tashkil qildi bunda eng yuqori ko'rsatgichni III tajriba guruhi g'unajnlari qayd etdi III va I tajriba guruhi o'rtasida sezilarli farq kuzatilmadi. ($P>0,95$).

Emizish davrida tirik vaznning kunlik o'sishi I tajriba guruhimizda 832,0 gm eng yuqori ko'rsatgichni qayd etdi II va III tajriba guruhlarimizda bu ko'rsatgich 765,0 va 816,0 gm ni tashkil qildi.

Aberdin-angus buzoqlarning 3 va 6 oylikdagi tirik vazni



Xulosa. Buqachalar bo'yicha o'rganganimizda ham ham eng yuqori ko'rsatgichlar I tajriba guruhimizda qayd etildi 6 oylikda buqachalarning tirik vazni I tajriba guruhimizda 200,0 kg ni tashkil qildi II va III tajriba guruhlarida mos ravishda 191,1 va 189,3 kg ni tashkil qildi.

Emizish davrida tirik vaznning mutloq o'sish ko'rsatgichi ham I tajriba guruhimizda eng yuqori o'rtacha 173,0 kg ni tashkil qildi II va III tajriba

guruhlarimizda mos ravishda 166,0 va 164,1 kg ni tashkil qilganini ko'rishimiz mumkin.

Shunday qilib sut emish davrida buzoqlarning o'sish va rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha eng yuqori natijalar I tajriba guruhining buzoqlari II va III tajriba guruhlariga nisabatan sezilarli darajada yuqori bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Veterinari to'g'risida" gi Davlat qonuni. Toshkent. 2015.
2. Белоусов А.М., Баев З.Г., Дубовскова М.П. Создание высокопродуктивных маточных стад в мясном скотоводстве. // Вестник мясного скотоводства. - 2006. - Т. 1. - № 59. - С. 43-47.
3. Габидулин В.М. Генетические и паратипические факторы племенной ценности бычков абердин-ангусской породы : автореф. дисс. ... канд. с.-х. н. - Оренбург, 2000. - 24 с.
4. Амерханов Х.А. О развитии мясного скотоводства в России.//Вестник ОрелГАУ. - 2011. - № 6. - С.5-9.